7-Mavzu. Nutq nuqsoniga ega bolalar mnestik faoliyati xususiyatlari

Reja:

1. Xotira haqida umumiy tushuncha.
2. Nutqida kamchiligi bo‘lgan bolalarning xotira xususiyatlari.
3. Nutqida kamchiligi bo‘lgan bolalar xotirasini o‘rganish usbuliyatlari.

Tayanch iboralar: Xotira, xotirani o‘rganish usbuliyatlari, individ, eslab qolish, unutish, qayta tiklash, esda olib qolish, ko‘rish, eshitish, sezish, hid bilish, ta’m bilish, qisqa muddatli xotira, uzoq muddatli xotira, tezkor xotira, geometrik figuralar, paraamneziya.

Inson his qilgan barcha narsa va hodisalar izsiz yo‘qolmaydi. Ular ma’lum miqdorda xotirada saqlab qolinadi, mustahkamlanib va kerak bo‘lganda qayta esga tushiriladi. Xotira – bu individ orqali tajribasining eslab qolinishini saqlanishi va kelgusida qayta tiklanishi. Xotiraga, shuningdek, unutish ham kiradi. Bu jarayonlar faoliyat jarayonida shakllanadi. Esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish va unitishda namoyon bo‘ladigan aqliy faoliyat xotira deyiladi.

Xotira jarayonlariga:

- esda olib qolish
- esda saqlash
- esga tushirish va unitish jarayonlari kiradi.



- Ixtiyorsiz xotira – esda olib qolish va esda saqlash oralig‘ida biror bir maqsadsiz yuz berishi bilan bog‘liq xotiradir.
- Ixtiyoriy xotira - maqsad qo‘yiladi, material tanlanadi va maxsus usullar asosida xotirada saqlab qolinadi.



Xotira turlari (esda olib qolish muddatiga ko‘ra)

- qisqa muddatli
- uzoq muddatli
- operativ

R.I.Martinova tadqiqotlariga ko‘ra mnestik faoliyatdagi nuqsonlar ayniqsa dizartriyada yaqqol namoyon bo‘ladi:

- Funktsional dislalaiyada va engil dizartriyada bolalarning xotirasi esda olib qolish hajmining torligi, qayta esga tushirishdagi xatolar bilan xarakterlanadi. Ushbu xususiyatlar diqqatning va fonematik eshitishning zaifligi bilan bog‘liq.
- Esda olib qolish sekinlik bilan amalga oshadi, takrorlashda esda olib qolingan so‘zlar miqdori kamayish belgilariga ega bo‘ladi, miqdor jihatdan eshitish xotirasi hajmining sezilarli darajada pasayishi kuzatiladi.

L.S.Svetkovaning fikricha, og‘ir nutq nuqsonlarida ko‘rish xotirasining o‘ziga xosligi shundaki, esda saqlash hajmi kam (atigi 1-2 ta ob’ekt); ko‘rish tasavvurlari inert (sekin hosil bo‘ladi).

V.I.Seliverstovning ta’kidlashicha, duduqlanishda xotira xususiyatlari diqqatni o‘z nuqsoniga qaratish holati bilan bog‘langan va ixtiyorsiz, so‘ngra ixtiyoriy xotira bilan bog‘liq. Bunda nutqdagi duduqlanish holatlari haqidagi tasavvurlar saqlanib qoladi.

O.R.Danilenkovaning fikricha, yetarlicha barqaror bo‘lmagan diqqat tufayli NTR bolalarda yod olinayotgan materialda chalg‘ish yuz beradi va bu esda olib qolishning samaradorligiga salbiy ta’sir etadi.

Nutq nuqsoniga ega bolalarda xotira xususiyatlari:

- ko‘rish xotirasi hajmi normadan deyarli farq qilmaydi.
- geometrik shakllar seriyasini samarali esda olib qolish imkoniyatlari unchalik yuqori bo‘lmaydi.

- shaklni idrok qilishning buzilishi, fazoviy tasavvurlarning zaifligi bilan bog‘liq.
- eshitish xotirasida umumiy pasayish kuzatiladi.

O.N.Usanova tadqiqotlarida: nutq rivojlanishidan orqada qolishda bolalarda eshitish va ko‘rish xotirasi hajmida yaqqol tafovutlar mavjud emas. Ixtiyoriy esda olib qolishga qaratilgan tadqiqotlar natijasida og‘ir nutq buzilishlarida vazifa shartlariga sekin orientirovka qilish va ularning samarasi normaga nisbatan past ekanligi aniqlangan.

Motor alalik bolalarda xotira xususiyatlari:

- material birinchi marta taqdim qilinganda(eshitish uchun) ularning ba’zilarinigina qayta esga tushira oladilar, bunda ular ba’zi so‘zlarni bir necha marotaba takrorlshlari yoki yangi so‘zlarni (paramneziya-yolg‘on xotira, fantaziya qilish) aytishlari ham mumkin. So‘zli paramneziyalar ushbu toifadagi bolalarga xos bo‘lgan nutq fikrlash tizimining beqarorligidan darak beradi.
- Dizartriyali bolalarda paramneziyalar kuzatilmaydi.

Nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalar qayta esga tushirishdagi xatolarini to‘grilay olmaydilar, xatto ularni payqamaydilar ham. Uzoq muddatli xotirada esga tushirishning past darajada bo‘lishi barcha kategoriyadagi bolalar uchun xarakterli hisoblanadi.

Xotira buzilishlari strukturasi ustunlik qilivchi (dominantlik qiluvchi) tipga bog‘liq. Bolalar ko‘pincha murakkab ko‘rsatmalarni esdan chiqarib qo‘yadilar, ba`zi elementlarni qoldirib ketadilar, harakatlar ketma-ketligini o‘zgartirib qo‘yadilar. Odatda ular ko‘rsatmani aniqlashtirib olish uchun nutqiy muloqotdan foydalanmaydilar. Bu esa diqqat xususiyatlari bilan bog‘liq. Biroq ushbu qiyinchiliklarga qaramay, nutqida nuqsonga ega bolalarda ma'noviy, mantiqiy esda olib qolish imkoniyatlari saqlanib qoladi.

Nutqiy nuqsonda xotiraning quyidagi xususiyatlari kuzatiladi:

- Ko‘rish xotirasi, geometrik shakllarni esda olib qolishdan tashqari, deyarli normaga mos;
- Eshitish xotirasi funktsiyasining umumiy pasayishi;
- Uzoq muddatli xotirada esga tushirishning past darajada bo‘lishi;
- Esda olib qolish samaradorligining past darajasi;
- Ma’noli, mantiqiy esda olib qolishning nisbatan saqlanib qolishi.

Xotira psixodiagnostikasi. Xotira – o‘tmish tajribani esda olib qolish, esda saqlash, qayta esga tushirish va unutishdan iborat psixik jarayon.

Esda olib qolish jarayonida ko‘ruv bilan birga eshitishga tayanilsa uning samaradorligi kuchayadi, ya’ni qanchalik ko‘p analizatorlar ishtirok etsa, shuncha samarali bo‘ladi va materialni tushunib esda olib qolishning eng yuqori natijasini ko‘rsatadi.[3] Materialni eslab qolish, hayot faoliyati jarayonida individual tajribaning to‘planishi bilan bog‘liq. Eslab qolinganni kelgusida qo‘llash uchun qayta tiklash zarurdir. Xotirada materialni saqlash, uning shaxs sifatida ishtirok qilishiga bog‘liq. Faoliyatdan ma’lum bir materialni tushib qolishi uni unutishga olib keladi.

Muayyan belgilariga ko‘ra, birlashadigan ko‘pgina xotira turlari mavjud:

1. Yetakchi analizatorlarga ko‘ra:

- ko‘rish;
- eshitish;
- sezish;
- hid bilish;
- ta’m bilish.

2. Predmet, faoliyat materialiga ko‘ra:

- harakatlantiruvchi;
- hissiy;
- tasavvurli;
- og‘zaki.

3. Eslab qolish davomiyligiga ko‘ra:

- qisqa muddatli;

[3] David G. Myers. Psychology, © 2010 by Worth Publishers. 267 pege.

- uzoq muddatli;

- tezkor.

4. Ruhiy faollik shakliga ko‘ra:

- ixtiyoriy;

- ixtiyorsiz;

- ixtiyoriydan so‘nggi.

Shunday qilib, xotira – shaxs ruhiy hayoti birligi va butunligini ta’minlovchi muhim tavsiflardan biridir. Uning o‘tmishdagi tajribasi saqlanib qolinishi deb hisoblash mumkin emas. Xotiraning individual farqlari uning jarayonlari xususiyatida namoyon bo‘ladi, ya’ni turli xil insonlarda eslab qolish va qayta tiklash qanday qilib amalga oshirilishida va aynan nima eslab qolinishida namoyon bo‘ladi. Bu belgilar turli xil jihatdan har bir inson xotirasi unumdorligini tavsiflaydi.

Biz sezgan, idrok qilgan narsalar iz qoldirmasdan yo‘qolib ketmaydi, balki ma’lum darajada esda olib qolinadi, ya’ni esimizda saqlanib qoladi va qulay sharoitda yoki kerak bo‘lganda esimizga tushadi. Shuningdek, kechirilgan tuyg‘u, fikr va qilingan ish-harakatlarimiz ham esimizda saqlanib qoladi va keyinchalik esimizga tushadi. Buni har kim o‘z tajribasidan yaxshi biladi. Masalan, o‘quvchilar maktabda o‘qitilayotgan narsalarini esda olib qoladilar, esda saqlaydilar va esga tushiradilar.


NTR bolalar xotirasi tadqiqotlari bilan **G.S.Gumennaya, M.I.Belyajova, Yu.F.Garkusha, O.N.Usanova** va boshqa olimlar shug‘ullanganlar. Aniqlanishicha, bunday bolalar ko‘rish xotirasi ko‘lami deyarli me’yordagidan farqlanmaydi.

NTR bolalarda mnestik funksiyalarni (xotirani) tadqiq qilishda ma’lum bo‘lishicha, ularning ko‘rish xotirasi me’yordan hech qanday farq qilmaydi.

Dizartriyali bolalarda geometrik figuralarni eslab qolish ehtimoli istisno qilinadi. Bu bolalarda shu sohadagi past natijalar ifodalangan idrokning buzilish shakllari, fazoviy tasavvurning bo‘shligi bilan bog‘liq (I.T.Vlasenko, 1990). Tadqiqotlar eshitish xotirasi hajmida katta turlanishini hamda shu funksiyaning ba’zi umumiy pastlashishini ko‘rsatadi. Shu bilan birga eshitish xotirasining darajasi nutq

rivojlanishi darajasining pasayishi bilan pasayadi. Shunday qilib, nutq rivojlanishi to‘xtab qolgan bolalarda ifodalangan tafovutlar og‘zaki va ko‘rish xotirasining hajmida kuzatilmaydi.

A.R.Luriya va boshqalarning «10 ta so‘z» metodikasi yordamida oldindan eslab qolishni tadqiq qilishda, nutqida og‘ir buzilishlar bo‘lgan bolalarda qator xususiyatlar uchraydi: ular vazifalar sharoitida sekinroq mo‘ljal olishadi va ularning natijalarini solishtirganda me’yordan pastroq bo‘ladi. Motor alaliyali bolalar birinchi aytilgandan keyin (eshitib turib) faqatgina bir qancha so‘zlarni qayta tiklaydi, bunda ular bir so‘zni bir necha marta qaytarishi mumkin yoki yangi so‘zlar aytadi (paramneziya). Og‘zaki paramneziyalar bu turga kiruvchi bolalar uchun o‘ziga xos nutq fikrlash tizimini ichki o‘zgaruvchanligini aks ettiradi. Paramneziyaga beriluvchanlik dizartriyali bolalarga xos emas. Nutqida patologiyasi bor bolalar qo‘yilgan xatolarini e’tiborga olmaydilar va tuzatmaydilar. Hamma bolalarda surilishni tiklash bir xil past bo‘ladi. Ular 10 daqiqadan so‘ng 5 ta so‘zni, keyingi kun – 1-3 ta so‘zni tiklaydi. Motor alaliyali bolalar uchun o‘nta so‘zning o‘rtadagi qismlarini tiklash ayniqsa qiyin bo‘lar ekan. Xotiraning tadqiqoti shunday xulosa qilishga imkon beradiki, bu turdagi bolalarni me’yorda gapiradigan sog‘lom bolalarga nisbatan solishtirganda eshitish xotirasi va eslab qolish unumdorligi ancha pastlashgan. Bolalar tez-tez murakkab yo‘l-yo‘riqlarni eslaridan chiqarib qo‘yadilar(uchta, to‘rtta pog‘onali),berilgan vazifalarning ketma-ketligini almashtiradilar va ba’zi belgilarni tushirib qoldiradilar. Bolalar yo‘l-yo‘riqni aniqlash maqsadida nutq muloqotiga tayanmaydilar (L.I.Belyakova,Yu.F.Garkusha, O.N.Usanova, E.L.Figeredo).



Ustunlik qiluvchi xotira turini aniqlash:

№	I	II	III	IV
1	Qo‘l	radio	ayiq	rasm
2	shkaf	oyoq	ovoz	ot
3	ruchka	daraxt	ustun	torozi
4	soat	ayoz	gilam	qisqich
5	stul	koptok	devor	Yo‘lbars
6	fikr	qarg‘a	atir	kosa
7	oyna	tirnoq	ishchi	koptok
8	ismaloq	chiroq	guruh	devor
9	ko‘ylak	piyola	mebel	gul
10	tarvuz	xarita	etik	son

Foydalaniladigan adabiyotlar:

- Ayupova M.Yu. Logopediya T.,2007.
- Денисова О.А.Детская психология. М.,2008.
- Калягин Б.А. Логопсихология. М.,2005.
- Mo‘minova L.R. , Abidova N.Z. Maxsus psixologiya. T.,2013.
- Трошин О.В., Жулина Е.В. Логопсихология. М.,2005.

O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar:

1. Eslab qolish, esda saqlash va kelgusida qayta esga tushirish qanday jarayon?
2. R.I.Martinova tadqiqotlariga ko‘ra mnestik faoliyatdagi nuqsonlar qaysi nutq nuqsonida yaqqol namoyon bo‘ladi?
3. Nutqiy nuqsonlarda xotiraning qaysi xususiyatlari kuzatiladi?